

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

D.R.Kapizova, I.I.Zokirov Mevali bog'lar koksidlari entomofaglarining sistematik tahlili (Sharqiy Farg'ona hududi misolida)	101
R.N.Mo'minova Qoradaryo havzasi yuksak suv o'simliklarining bioekologik xususiyatlari.....	106
S.D.Dadaev, D.A.Paluaniazova О фаунистических и экологических особенностях гельминтов мелкого рогатого скота Каракалпакстана	110
S.B.Orifov, F.R.Xolboyev Hind chumchug'i- <i>Passer indicus</i> ning O'zbekistonda ko'payish xususiyatlari va ahamiyati	116
N.K.Devonova, G.S.Mirzayeva, B.E.Soyibnazarov, Sh.E.Tursunboyeva Surxon davlat qo'riqxonasining tangachaqaotli hasharotlari (insecta: lepidoptera)	121
M.A.Axmadjonova Farg'ona vodiysida tarqalgan <i>Sitona</i> Germar, 1817 avlodi (Coleoptera: Curculionidae)ga mansub turlarning bioekologik xususiyatlari.....	127
V.A.Karimov, M.Nazarov Jadal texnologiyada arpa yetishtirish	133

GEOGRAFIYA

Y.I.Ahmadaliyev, X.A.Abduvaliyev Aholi zichligini aniqlashda yer sig'imi uslubidan foydalanish	142
I.O.Sulaymonov O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning ayrim jihatlarini	146
Q.S.Yarashev, A.I.Xayitbayev Xorazm viloyati voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishi	150
I.Aripov, R.Mariya Sirdaryo viloyatida sho'rlangan hududlarni melioratsiyalashtirish samaradorligining iqtisodiy baholanishi	154
A.U.Usmonov, A.K.Ergashev Shahar aholi manzilgohlari shakllanishi va rivojlanishining nazariy asoslari (Vobkent tumani misolida)	161
O.N.Xakimov Kollektor geotizimlaridagi relyefning havzaviy strukturasi	166
O.N.Xakimov Yer yuzasini kartografik ideallashtirish va uning relyef strukturasi tadqiq qilishdagi o'rni.....	178

ILMIY AXBOROT

Y.E.Altiboyev Tarixiy manbalarda keltirilgan Qashqadaryo daryosi to'g'risidagi ma'lumotlar tahlili	190
A.A.Akramov Oliy ta'lim tizimida ekologik o'quvni modernizatsiyalashgan didaktik ta'minotini takomillashtirish modeli.....	195
M.J.Urinov Kambag'allikning sivilizatsion ko'chish dinamikasi va uning o'ziga xos xususiyatlariga falsafiy tavsif	199
B.F.Abdishukurov Markaziy Osiyodagi hududiy-chegaraviy muammolar (1924-yildan keyingi voqealar xususida).....	203
A.M.To'rayev Talabalarda tadqiqotchilik kompetensiyasini shakllantirish asosida kasbiy takomillashtirish	207
Sh.M.Kadirov Talabalarda tarixiy voqelikka nisbatan analogik xulosa chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish	210



UO‘K: 911.53

XORAZM VILOYATI VOHA LANDSHAFTLARINING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISHI
ФОРМИРОВАНИЕ И РАЗВИТИЕ ОАЗИСНЫХ ЛАНДШАФТОВ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ
FORMATION AND DEVELOPMENT OF OASIS LANDSCAPES IN KHOREZM REGION

Yarashev Quvondiq Safarovich¹ ¹SamDU Urgut filiali direktori, g.f.d. (DSc)**Xayitbayev Abror Ismoilovich²** ²Urganch davlat universiteti geografiya kafedrasini mustaqil tadqiqotchisi [h](#)**Annotatsiya**

Ushbu maqolada Xorazm viloyati voha landshaftlari shakllanish omillari ko‘rib chiqilgan Bugungi kunda mamlakatimiz umumiy yer maydonining o‘ndan bir qismini tashkil etgan voha landshaftlarini tadqiq etishga qiziqish ortib bormoqda. Antropogen landshaft komplekslari tarkibiga kiruvchi voha landshaftlarining shakllanishi va rivojlanishini tasniflash, kartalashtirish masalalari dolzarb bo‘lib qolmoqda..

Аннотация

Сегодняшний день растет интерес к изучению оазисных ландшафтов, которые составляют десятую часть общей площади страны. Актуальными остаются вопросы классификации и картирования формирования и развития оазисных ландшафтов, входящих в антропогенные ландшафтные комплексы. В статье рассматриваются факторы формирования оазисных ландшафтов Хорезмской области.

Abstract

Today, there is increasing interest in researching oasis landscapes, which make up one tenth of the total land area of our country. Issues of classification and mapping of the formation and development of oasis landscapes, which are part of anthropogenic landscape complexes, remain relevant. This article examines the factors of formation of oasis landscapes of Khorezm region.

Kalit so‘zlar: antropogen voha landshaft, seliteb landshaftlar, landshaft tipi, melioratsiya, tuproq-meliorativ holat, meliorativ baholash.

Ключевые слова: антропогенный оазис, селитебные ландшафты, ландшафтный тип, мелиорация, почвенно-мелиоративное состояние, мелиоративная оценка.

Key words: anthropogenic oasis landscape, selected landscapes, landscape type, melioration, soil-ameliorative condition, ameliorative assessment.

KIRISH

O‘zbekiston hududida yer va suv resurslari cheklangan bo‘lib, mavjud yer va suv resurslaridan samarali foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biridir. Shuning uchun, voha landshaftlarining meliorativ holatini aniqlash va baholash ishlarini tashkil etish muammolarning bir yechimi sifatida qaralmoqda. Voha landshaftlarining meliorativ holatini baholash, ularning meliorativ holatini yaxshilash tuproqshunoslik, agrokimyo, agronomiya kabi sohalar bilan bir qatorda geografiyaning ham muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning qishloq xo‘jalik, shuningdek oziq-ovqat mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan hududlaridan biri - Xorazm voha landshaftlaridir. Ushbu hududda tekislik landshaftlari katta maydonlarni egallaydi. Bunday tabiiy sharoit tuproqlarning o‘ziga xos suv-tuz rejimini belgilaydi. Shu sababli, iqtisodiy jihatdan samarali usullarni qo‘llagan holda voha landshaftlarini landshaft-meliorativ holatini baholash, komponentlarning dinamik o‘zgarishini aniqlash kabi masalalar hozirgi landshaftshunoslik faning dolzarb muammolaridan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O‘zbekiston hududida qadimdan tarkib topgan vohalarni landshaftshunos olimlar (A.Abdulqosimov, A.N.Hojimatov, A.Rahmatullayev, K.Boymirzayev, Yu.Abdurahmonova,

GEOGRAFIYA

Q.S.Yarashev, I.K.Mirzaxmedov, E.B.Ulug'murodov) tomonidan turli maqsadlarda o'rganilgan. Biz o'rganayotgan Xorazm viloyati hududining voha lanshaftlari ham qadimdan inson tomonidan o'zlashtirilib, o'ziga xos tabiiy-antropogen geokompleks sifatida vujudga keltirilgan. Voha landshaftlari birinchi galda muntazam sug'orilib turiladigan agrolandschaftlar, ikkinchi navbatda irrigatsiya va melioratsiya tarmoqlari, barpo etilgan daraxtzorlari, seliteb landschaftlar mavjudligi bilan ajralib turadi.

F.N.Milkov antropogen landschaftlarni o'rganar ekan, ular orasida quyidagi tipologik birliklarni ajratgan: 1.Antropogen urochisha tipi; 2.Antropogen joy tipi; 3.Antropogen landschaft tipi; 4. Antropogen landschaftlar sinfi.

Tarix-arxeologik uslubdan foydalanish va unga asoslanish natijasida Xorazm viloyati botig'i antropogen landschaftlarining shakllanish hamda rivojlanish tarixini davrlashtirishni amalga oshirish mumkin. Jumladan:

1. Bokira landschaftlarning hukmronlik davri pleystosenni o'z ichiga olib (paleolit, 500-12 ming yil avval), qadimiy odamlar iqtisodni o'zlashtirish davriga to'g'ri keladi. Bu davrda kishilarning landschaftlarga bo'lgan ta'siri sezilarli darajada bo'lmagan va ularning strukturasi o'zgartirish qobiliyatiga ega emas edilar. Asosiy madaniyatlar bo'lib ashel, muste va kechki neolitlar hisoblanadi.

2. Antropogen landschaftlarning shakllanishiga shart-sharoitning vujudga kelish davri quyi golotsenga to'g'ri keladi (mezolit, 12-6 ming yil avval). Inson ovchilik, to'plovchilik, boshpana qurish va chorva bilan shug'ullanib, tabiatga ta'sir eta boshlaydi. Natijada, o'simlik qoplaminig o'ziga xos modifikatsiyalanishiga, muhitning ekologik buzilishiga sababchi bo'ladi. Shu bilan birga miqdor o'zgarishidan sifat o'zgarishiga o'tish uchun ma'lum darajada shart-sharoit vujudga keladi. Bu davrda mezolit madaniyati mavjud bo'lgan.

3. Mahalliy antropogen landschaftlarning vujudga kelish davri vaqt jihatdan o'rta golotsenga to'g'ri keladi (neolit va eneolit, 6-3,5 ming yil avval). Bu davrda odamlarning turmush darajasi ancha yaxshilanadi va xo'jalik hayot shakllanadi. Mahalliy, liman sug'oriladigan dehqonchilik vujudga keladi. Sug'oriladigan dehqonchilik bilan birga tuproq eroziyasi, sho'rlanish va jarlarning hosil bo'lish jarayoni boshlanadi. Eneolitda haydalgan yer va ekinzorlar, degredatsiyaga uchragan yaylov landschaftlari bilan birga ishlab chiqarish landschaftlarining ayrim elementlari ham namoyon bo'ladi.

4. Ishlab chiqaruvchi iqtisod bilan bog'liq bo'lgan antropogen landschaftlarning faol shakllanish davri yuqori golotsenning birinchi yarmiga to'g'ri keladi (bronza, 3,5-2 ming yil avval). O'troq dehqonchilikning vujudga kelishi bilan birga faqatgina haydalib sug'oriladigan qishloq xo'jaligi landschaftlari taraqqiy etib qolmasdan, qishloq va shahar tipidagi seliteb landschaftlar ham rivojlana boradi. Antropogen landschaftlarning strukturasi irrigatsion, sanoat va qadimgi seliteb geokomplekslar bilan murakkablashadi. Tuproq eroziyasi va sho'rlanish kabi jarayonlardan tashqari agroirrigatsion yotqiziqqlarning to'planishi ham faollashadi.

5. Turli xil antropogen landschaftlarning intensiv ravishda shakllanish davri yuqori golotsenning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi (temir asrining eramizdan oldingi bir minginchi yildan to XX asrning o'rtasigacha). Bu davrda antropogen landschaftlar har tomonlama taraqqiy etadi, geosistemalarning strukturasi keng tarqalgan shahar va qishloq voha, sug'oriladigan hamda lalmikor qishloq xo'jaligi, sanoat, irrigatsion landschaft komplekslaridan iborat bo'ladi. Bu yerlarda yirik madaniyat markazlaridan biri bo'lgan Xorazm shohligi vujudga keladi.

6. Eng yangi davr yoki fan-texnika taraqqiyoti davri XX asrning o'rtalaridan boshlanib, hozirgi kunda ham davom etmoqda. Bu davrda insoniyat atom energiyasiga ega bo'ldi, kosmik fazoni zabt etdi, keng ko'lamda landschaftlarning transformatsiyalanishi boshlandi, geotexnik sistemalar shakllandi. Xorazm viloyatining landschaft strukturasi meliorativ, tabiiy-texnik tizimlar, suv omborlari, rekultivatsiyalashtirilgan va rekreatsion geotizimlar paydo bo'ladi.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Yerlarni sug'orish arid iqlimli hududlarda, ya'ni cho'l, chalacho'l va boshqa qurg'oqchil zonalarda, shuningdek vegetatsiya davrining ayrim bosqichlari nam bilan yetarli ta'minlanmagan hududlarda amalga oshiriladi. Quruq va issiq iqlimli sharoitlarda faqat sug'orish jarayoni yer resurslari mahsuldorligini oshirishning eng muhim va zaruriy usuli hamda dehqonchilikni boshqarishning muhim shartlaridan biri hisoblanadi.

Sug'oriladigan voha landshaftlari qishloq xo'jalik (agrolandshaft) landshaft sinfining dala tipiga kirib, Xorazm viloyatining o'zlashtirilgan madaniy landshaftlarini ham shu tipga kiritish mumkin. Hududda qishloq xo'jaligi landshaftlari eng keng tarqalgan antropogen landshaft komplekslari hisoblanadi. Antropogen qishloq xo'jalik landshaftlari dala, bog', voha tiplariga bo'linib, ular bir-biridan o'ziga xos mikroiklimiy xususiyatlari, geoeologik sharoiti va o'z-o'zini boshqarish darajasi, ulardan inson xo'jalik faoliyatida foydalanishi davomida insonning foydalanishi natijasida qay darajada o'zgarganligi bilan farq qiladi. Antropogen qishloq xo'jaligi landshaft sinfi doirasida to'rtta: dala, bog', voha va o'tloq-yaylov zonal tipi ajratiladi.

Xorazm voha landshaftlari qadimdan Amudaryoning chap qirg'og'i qadimgi deltasi, daryodan oqizib chiqarilgan kanallar olib kelib yotqizgan yotqiziqlaridan hosil bo'lgan. Hududda voha landshaftlarining shakllanishida ishtirok etuvchi omillardan eng asosiysi – uning ichki suvlari. Viloyat yer yuzasi relefini ko'pdan-ko'p kanallar va kollektorlar parchalab turadi. Hudud yer osti suvlariga ham boy bo'lib, ular turli darajada minerallashganligi bilan ajralib turadi. Viloyat hududida katta va kichik ko'llar joylashgan bo'lib, ularning kelib chiqishi qayir va tashlama ko'llar hisoblanadi. Bu ko'llar orasida har litrida 1 gr tuz bo'lgan chuchuk suvlar bilan birga yuqori minerallashgan sho'r ko'llar ham ko'p uchraydi. Tuyamo'yin suv omborining qurilishi munosabati bilan viloyat yer osti suvlarining sathi va ularning minerallashish turli darajada o'zgardi.

Viloyatda qadimdan sug'orma dehqonchilik rivojlangan bo'lib, sug'orish o'simliklar rivojlanishi bilan birgalikda vohalar iqlimining yumshoq bo'lishi, kontinentalligi va quruqligi jihatlarining atrofda cho'l hududlarga takqoslaganda kamayishiga olib keladi. Intensiv bug'lanish vohalarda havoning mutlaq va nisbiy namligini oshiradi, daraxt-buta o'simliklarining ko'pligi esa shamolning tezligini keskin pasaytiradi. Viloyat vohalarida issiqlikning ko'p qismi namlikning bug'lanishiga sarf bo'lishi oqibatida butun vegetatsiya davrida havo harorati cho'lga nisbatan birmuncha past bo'lib, bu farq 3⁰S gacha yetishi mumkin. Shunga bog'liq holda vohalarda harorat inversiyasi kuzatilib, bu sutka davomida intensiv sug'oriladigan maydonlarda ro'y beradi.

Vohalarda sug'orish o'z xususiyatiga ko'ra amalda yangi bo'lgan agroirrigatsion yotqiziqlarning shakllanishiga olib kelib, uni natijasida hosil bo'lgan qatlamni tuproqshunoslar agroirrigatsion qatlam deb atashadi. Bu qatlam bir necha yillar davomida sug'orish natijasida dalalarda suv tarkibidagi loyqaning cho'kishidan vujud kelgan. Agroirrigatsion yotqiziqlarning qalindigiga qarab vohalarning yoshini aniqlash mumkin, ya'ni A.A.Abdulqosimovning (1984) ma'lumoti bo'yicha vohalarning yoshi va yerlarning qiyaligiga qarab agroirrigatsion yotqiziqlar qalinligi 0,5-1 m dan 3-4 m gacha o'zgarib boradi.

Cug'orma dehqonchilik mintaqalarida, jumladan, Xorazm viloyati yerlarining meliorativ holati tuproqlarning sho'rlanganlik, gipslashganlik, tabiiy namlanganlik, sizot suvlarining sathi, chuqurligi va sho'rlanganlik darajasi kabi asosiy ko'rsatkichlarga qarab baholanadi. Bu tizimning samaradorligini baholash jarayonini quyidagi bosqichlarga bo'lib tahlil qilish mumkin: birinchi bosqich – 1990-2005 yillar, suv xo'jaligida tarkibiy o'zgarishlar ro'y bergan davr; ikkinchi bosqich – 2005-2012 yillar, yerlarning meliorativ holatini yaxshilash borasida chuqur islohotlar boshlangan davr; uchinchi bosqich – 2012 yildan hozirga qadar. Bu vaqt oralig'ida Davlat dasturi qabul qilinib, aniq maqsadlar, meliorativ tadbirlarni amalga oshirishning moliyaviy manbalari va ularni amalga oshirishning qat'iy rejalari belgilab olinadi va ularda belgilab berilgan vazifalarni bajarilishi amalga oshiriladi va bu boradagi ishlarning mantiqiy davomi sifatida 2013-2017 yillarga mo'ljallangan Davlat dasturini qabul qilinib, uning ijrosini ta'minlashga asosiy e'tibor qaratiladi.

Sug'oriladigan maydonlarda tabiiy o'simliklar, tuproq tarkibidagi mikroorganizmlarning faoliyati, tuproqlarning morfologik, fizik, kimyoviy va biologik xossalari o'zgardi, eng muhimi voha landshaftlarining tabiiy sharoiti optimallashtirildi. Voha landshaftlaridan samarali foydalanish eng avvalo tuproqlarning meliorativ holatiga bevosita bog'liq. Xorazm viloyati hududidagi sug'oriladigan yerlarning barcha qismi turli darajada sho'rlangan va sho'rlanmoqda. Bu esa o'z navbatida joyning turli komponentlari, yer usti va yer osti suvlari harakati, iqlim, ekologik, sug'orish madaniyati va boshqa bir qancha antropogen omillarga bevosita bog'liq. Hozirgi kunda viloyat tuproqlari meliorativ holati, sizot suvlari sathi, sho'rlanish darajasi, tuproq bonitirovkasi, yer kadastrasi bilan respublikamiz va viloyatdagi tegishli ilmiy tashkilotlar o'rganishib, olingan natijalar tahlil qilinmoqda.

XULOSA

Xorazm voha landshaftlarini o'rganish borasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarimizda hududning landshaft komponentlarida kuzatilayotgan o'zgarishlarni baholash va ularni kartalashtirish masalalariga e'tibor qaratiladi. Antropogen landshaftlarni va ularning tarkibiy qismi bo'lgan voha landshaftlarini tadqiq qilish, ularni o'rta va yirik masshtabli kartalashtirish, tasniflash, dinamik rivojlanishini kuzatish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega. Voha landshaftlarida qishloq xo'jalik ekin turlarini landshaft tiplariga moslashtirib joylashtirish hosildorlik darajasining oshishiga, landshaft-ekologik muammolarni ijobiy hal qilishga imkon yaratadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдулкасимов А.А. О структуре и картировании оазисных ландшафтов. В сб.: Антропогенные ландшафты ЦЧО и прилегающих территорий. Воронеж, 1972. – С. 39-41.
2. Ярашев К.С., Хайитбаев А.И. Формирование и развитие оазисных ландшафтов как типа антропогенных ландшафтов // "Экономика и социум" №12(115) 2023.
3. Ярашев К.С., Хайитбаев А.И. Ландшафты роца Хорезмской области и некоторые вопросы их мониторинга// "Экономика и социум" №12(115) 2023.
4. Мильков Ф.Н. Антропогенное ландшафтоведение, предмет изучения и современное состояние. //Вопросы географии, No106. - М., 1977. - С. 11-27.
5. Yarashev Q.S., Xayitbayev A.I. Voha landshaftlari antropogen landshaftlarning bir turi sifatida // "Zamonaviy geografiya: innovatsion rivojlanishning ilmiy-uslubiy asoslari" xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Urganch, 27-28.10.2023, 26-28 betlar.
6. Yarashev K.S., Akbarov A., Kurbanova I. Some Issues of the Mapping the Oasis Landscape of Uzbekistan //International Journal of Academic Multidisciplinary Research (IJAMR) ISSN: 2643-9670. Vol. 4 Issue 12, December - 2020, Pages: 60-63.
7. Қурбонниёзов Р. Хоразм географияси. Ўқув қўлланма. – Тошкент, "Ўқитувчи", 1997. 51-53 б.